

**“Olmaliq KMK” AJ**  
**ijro apparati bo‘linmalari hamda tarkibiy**  
**tuzilmalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni**  
**majburiy tartibda aniqlash, baholash**  
**va ularni kamaytirish**  
**USLUBIYOTI**

Mazkur Uslubiyot, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 11-maydagi “Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **PQ-240-sonli Qarori** hamda O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2022 yil 31 avgustdagi “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy bo‘linmalari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyotini tasdiqlash to‘g‘risida”gi (Adliya vazirligida **2022 yil 31 avgustda 3383-son** bilan ro‘yxatdan o‘tgan) Qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, “Olmaliq KMK” AJ Boshqaruv a‘zolari, ijro apparati bo‘linmalari hamda tarkibiy bo‘linmalarga (keyingi o‘rinlarda – Kombinat) yuklatilgan vazifalar, funksiyalar hamda ularni amalga oshirish mexanizmlarining korrupsiyaviy xavf-xatarlarga moyillik darajasini aniqlash, baholash, ro‘yxatini shakllantirish, korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini shakllantirish, ularni bartaraf etish yoxud minimallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishning Kombinat va uning tarkibidagi yagona tartib hamda yondashuvini belgilaydi.

## 2-bob. Umumiy qoidalar

1. Kombinat faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashning maqsadlari quyidagilardan iborat:

Kombinat faoliyatining korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko‘p duch keladigan vazifa va funksiyalarini aniqlash hamda korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo‘lgan Lavozimlar ro‘yxatini shakllantirish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo‘yicha Chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda ijrosini monitoring qilish.

2. Kombinat ijro apparati bo‘linmalari hamda tarkibiy bo‘linmalarda (korxonalar va sexlarda) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash yakunlariga ko‘ra quyidagi hujjatlar ishlab chiqilishi lozim:

- Korrupsiyaviy xavf-xatarlar **Xaritasi**;
- Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha **Dastur**;
- Korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo‘lgan **Lavozimlar ro‘yxati**;
- Korrupsiyaga moyil bo‘lgan munosabatlar **Elektron reestri**.

3. Ushbu Uslubiyotda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

**korrupsiyaviy xavf-xatar** – Kombinat xodimining o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda mavjud sabab va sharoitlarda korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish ehtimoli;

**korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi** – Kombinat ijro apparati bo‘linmalari hamda tarkibiy bo‘linmalar (korxonalar va sexlar) faoliyatida amalga oshiriladigan vazifa va funksiyalar (jarayonlar) bilan bog‘liq yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan korrupsiyaviy xavf-xatarning tavsifi va darajasi, funksiyalarni (jarayonlarni) tartibga soluvchi mexanizmlar,

funksiyalarni (jarayonlarni) amalga oshirishga mas'ul bo'lgan lavozim, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari va muddatlari, qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasi, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari amalga oshirishga mas'ul ijrochilarni o'z ichiga olgan hujjat;

**korrupsiyaga oid huquqbuzarlik** – korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

**korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash** – Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy bo'linmalarning (korxonalar va sexlarning) faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) tahlil qilish, mavjud korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash hamda ushbu xavf-xatarlar darajasini baholash bo'yicha faoliyat;

**qoldiq xavf-xatar** – aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish yuzasidan belgilangan choradan keyin saqlanib qoladigan xavf-xatar;

**maxsus bo'linma** – Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy bo'linmalaridagi korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini muvofiqlashtirish va nazorat qilishga mas'ul bo'lgan ichki nazorat tuzilmasi (matnda – Komplains-nazorat xizmati);

**ishchi guruh** – Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy bo'linmalarida (korxonalar va sexlarda) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va ularni kamaytirish uchun rahbar xodimlardan iborat tarkibda tuziladigan doimiy faoliyat ko'rsatuvchi tuzilma.

4. Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy bo'linmalar (korxonalar va sexlar) tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni **baholash har yili 20 fevralga qadar** amalga oshiriladi.

5. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (keyingi o'rinlarda - Agentlik deb yuritiladi) Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy bo'linmalarda (korxonalar va sexlarda) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va bartaraf etish borasidagi faoliyatini takomillashtirish, ushbu yo'nalishda kamchiliklarning oldini olish bo'yicha ko'rsatmalar berish huquqiga ega.

### **3-bob. Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy bo'linmalar (korxonalar va sexlar) faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash ishlarini tashkil etish**

6. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Kombinat va uning tarkibiy tuzilmasiga kiruvchi barcha tarkibiy bo'linmalarni (departament, boshqarma, bo'lim, xizmat, sektor, byuro, ofis va boshqalar), shuningdek ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan korxonalar va sexlarni qamrab olishi lozim.

Bunda, Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy bo'linmalar (korxonalar va sexlar) faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Kombinat boshqaruv raisi rahbarligidagi Ishchi guruh tomonidan amalga oshiriladi.

7. Ishchi guruh a'zolari Kombinat boshqaruvi a'zolari, ijro apparatidagi hamda tarkibiy bo'linmalarning birinchi rahbarlaridan iborat tarkibda shakllantiriladi.

Boshqaruv raisining tegishli buyrug'i bilan Ishchi guruhning shaxsiy tarkibi tasdiqlanadi, uning faoliyati muvofiqlashtiriladi hamda muntazam ravishda nazorat qilinadi.

8. Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy bo'linmalar (korxonalar va sexlar) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashda Ishchi guruh tomonidan quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash bo'yicha ishlarni tashkil etish, muvofiqlashtirish va ijrosini shaxsan nazorat qilish;

Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy (korxonalar va sexlar) bo'linmalarining korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini ishlab chiqishni tashkil qilish;

Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy bo'linmalarining (korxonalar va sexlar) korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturlari loyihalarini ishlab chiqish ishlarini tashkil qilish va nazorat qilish;

Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy bo'linmalar (korxonalar va sexlar) tomonidan ishlab chiqilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur loyihalarini ko'rib chiqish va ularni takomillashtirish yuzasidan takliflar berish;

Agentlik va jamoatchilik (yoxud mustaqil ekspertlar) tomonidan berilgan takliflar asosida Kombinat ijro apparatidagi hamda tarkibidagi bo'linmalarining korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur loyihasini takomillashtirish;

Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy bo'linmalarda (korxonalar va sexlar) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash ishlarini bevosita, baholash guruhi yoxud mustaqil ekspertlarni (konsalting kompaniyasini) shartnoma asosida jalb qilgan holda amalga oshirish;

ixtiyoriy tanlov asosida muayyan korxonalar yoxud bo'linmada korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash jarayoni ustidan nazoratni amalga oshirish;

muayyan korxonalar yoxud bo'linmada korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini ishlab chiqishni nazoratga olish, xaritaning ishlab chiqish ishlarini muvofiqlashtirish, xarita loyihasi tasdiqlangan taqdirda, uning muayyan korxonalar yoxud bo'linma tomonidan ijrosini nazorat qilish, Kombinatning birlashgan/umumlashtirilgan xaritasini tayyorlashda Xizmatga yaqindan amaliy yordam berish;

korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga qarshi kurashish bo'yicha Kombinatning yoxud tarkibiy bo'linmaning idoraviy Dasturlari loyihalarini ishlab chiqish ishlarini tashkil qilish, muvofiqlashtirish, (idoraviy) Dastur tasdiqlangan taqdirda uning ijrosini tegishli bo'linma kesimida (korxonalar, sexlar, departamentlar, boshqarmalar, bo'limlar, xizmatlar, byuro, sektor)da ijrosini nazorat qilish, Dastur ijrosi yuzasidan ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy bo'linmalar kesimida hisobotlarni o'z vaqtida va to'liq hajmda tayyorlanishini nazorat qilish;

Xizmatga Kombinatning umumlashtirilgan (jamlanma) hisobotlarini tayyorlash ishlarida yaqindan amaliy va tashkiliy yordam berish;

Ishlab chiqarishdagi vaziyatdan kelib chiqib, Xizmatning so'roviga asosan qo'shimcha axborot, ma'lumot va hujjatlarni tayyorlash bo'yicha shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishidagi boshqa vazifalarni ham amalga oshirishda texnik, tashkiliy, huquqiy, ma'muriy jihatdan Xizmatga doimiy ravishda yordam ko'rsatadi.

9. Kombinatning korrupsiyaviy xavf-xatarlarini aniqlash va baholash ishlarini tashkil qilishda ijro apparatidagi Komplaens-nazorat xizmati quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash ishlarini tashkil qilishda Ishchi guruhga uslubiy va amaliy yordam ko'rsatadi;

korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur loyihalarini ishlab chiqishda Ishchi guruhga uslubiy va amaliy yordam ko'rsatadi;

korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullarni, shuningdek, Kombinatning boshqa ishchi xodimlari va mutaxassislarni jalb qilgan holda Kombinatning faoliyat yo'nalishlari hamda bo'linma va korxonalari kesimida xavf-xatarlarni baholash ishlarini tashkillashtiradi;

Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy bo'linmalarida (korxonalar va sexlarda) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash ishlarini muvofiqlashtiradi hamda uning ustidan nazoratni amalga oshiradi;

Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy bo'linmalaridagi (korxonalar va sexlardagi) korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullar, shuningdek Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy bo'linmalarga mazkur Uslubiyotda ko'zda tutilgan tartib-taomillarga rioya qilish bo'yicha maslahat, tavsiya va ko'rsatmalar beradi;

Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy bo'linmalarining (korxonalar va sexlarning) korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini tuzish ishlarini tashkillashtiradi (tegishli Buyruq loyihasini tayyorlaydi) hamda tasdiqlash uchun Boshqaruv raisiga taqdim qiladi;

Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy bo'linmalar (korxonalar va sexlar) kesimida ishlab chiqilgan (tuzilgan) xavf-xatarlar xaritasini umumlashtiradi;

Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy bo'linmalarining (korxonalar va sexlarning) rahbarlariga xavf-xatarlarni baholash natijalari va korrupsiyaviy xavf-xatarlarning umumlashtirilgan xaritasining ijrosini ta'minlash uchun taqdim etadi hamda uning ijrosini nazorat qiladi;

Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy bo'linmalar (korxonalar va sexlar) tomonidan, tasdiqlangan xavf-xatarlar xaritasi asosida ishlab chiqilgan, korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga qarshi kurashish bo'yicha Dasturlar loyihalarini ko'rib chiqadi va ularni

qabul qilishning maqsadga muvofiqligi yoxud ularni takomillashtirish to'g'risida taklif va tavsiyalar beradi;

Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy bo'linmalar (korxonalar va sexlar) tomonidan korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy Dasturlar asosida Kombinatning korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga qarshi kurashish bo'yicha umumlashtirilgan (jamlanma) Dasturini ishlab chiqadi;

Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy bo'linmalar (korxonalar va sexlarning) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarini muvofiqlashtiradi va ularning ijrosini nazorat qiladi;

Komplaens-nazorat xizmati qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalarni ham amalga oshirishi ham mumkin.

Zarurat bo'lgan hollarda, Komplaens-nazorat xizmati ijro apparatidagi hamda tarkibiy bo'linmalar mas'ullaridan, korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga qarshi kurashish bo'yicha qo'shimcha axborot va hujjatlarni talab qilib oladi.

#### **4-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash tartibi**

10. Baholash guruhi tomonidan Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy bo'linmalar (korxonalar va sexlar) faoliyatining (vazifa va funksiyalarining), shuningdek barcha darajadagi ishchi va rahbar xodimlarning vazifa va funksiyalari tavsifi ushbu Uslubiyotning 1-ilovasiga muvofiq shaklda tuziladi.

11. Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy bo'linmalar faoliyatidagi (vazifa va funksiyalaridagi) shuningdek barcha bo'g'indagi ishchi va rahbar xodimlarning vazifa va funksiyalaridagi (lavozim yo'riqnomalaridagi) mavjud korrupsiyaviy xavf-xatarlar ichki va tashqi axborot manbalari asosida aniqlanadi.

12. Ichki axborot manbalari quyidagilardan iborat:

Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy bo'linmalar (korxonalar va sexlar) faoliyatining (vazifa va funksiyalarining) huquqiy asosi;

Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy bo'linmalar (korxonalar va sexlar) funksiyalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar va ichki normativ hujjatlari (misol uchun: ijro apparatidagi hamda tarkibiy bo'linmalarining ichki nizomlari, barcha xodim va rahbarlarning Lavozim yo'riqnomalari va h.k.);

ichki tekshiruv materiallari, shu jumladan xizmat tekshiruv materiallari;

Kombinat Odob-axloq komissiyasi majlislarining yig'ilish bayonnomalari;

Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy bo'linmalar (korxonalar va sexlar)da korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining monitoring natijalari;

Komplaens-nazorat xizmati yoxud boshqa tarkibiy bo‘linmalar tomonidan davlat tashkiloti faoliyati (vazifa va funksiyalari) yuzasidan o‘tkazilgan so‘rovnomalar, shu jumladan sosiologik tadqiqotlar natijalari va boshqalar.

13. Tashqi axborot manbalari quyidagilardan iborat:

Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy bo‘linmalarning ishchi va rahbar xodimlari faoliyatiga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi murojaatlar (xabarlar) va statistik ma‘lumotlar;

Agentlik yoki boshqa davlat tashkilotlari tomonidan davlat tashkiloti faoliyati (vazifa va funksiyalari) yuzasidan o‘tkazilgan so‘rovnomalar, shu jumladan sotsiologik tadqiqotlar natijalari;

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar yoxud sud organlari tomonidan taqdim etilgan materiallar va boshqalar.

14. Ishchi guruh hamda Baholash guruhi tomonidan Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy bo‘linmalar, shuningdek egallab turgan lavozimidan qat‘iy nazar barcha ishchi va xodimlarning faoliyatidagi (vazifa va funksiyalaridagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlashda quyidagi holatlar tahlil qilinishi lozim:

Kombinat xodimi tomonidan sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik holatlari va faktlari;

Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy bo‘linmalar, shuningdek egallab turgan lavozimidan qat‘iy nazar barcha ishchi va xodimlar tomonidan faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) amalga oshirishda jismoniy va yuridik shaxslar uchun sun‘iy to‘siqlarning mavjudligi;

o‘z vaqtida qaror qabul qilmaslik, asossiz tezkor tartibda qaror qabul qilish faktlari;

hujjatlar, elektron ma‘lumotlar bazalariga bila turib qasddan yolg‘on ma‘lumotlarni kiritish holatlari;

Kombinat xodimlari va rahbarlari tomonidan o‘z xizmat vakolatlarini amalga oshirishda yo‘l qo‘yilgan manfaatlar to‘qnashuvi holatlari;

Kombinat ishchi va xodimlari, shuningdek rahbarlar tomonidan o‘z xizmat vakolatlarini amalga oshirishda mahalliychilik, guruhbozlik, homiylik, urug‘-aymoqchilik, qarindosh-urug‘chilik, oshna-og‘aynigarchilik, favoritizm, nepotizm, kronizm kabi salbiy holatlarining mavjudligi.

15. Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy bo‘linmalar, shuningdek egallab turgan lavozimidan qat‘iy nazar barcha ishchi va xodimlar faoliyatidagi (vazifa va funksiyalaridagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlarning darajasi quyidagi o‘lchovlarda baholanadi:

- past;
- o‘rta;
- yuqori.

16. Ishchi guruh tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatar darajasiga baho berish mazkur Uslubiyotning 2-ilovasidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi.

### **5-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari**

17. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

normativ-huquqiy hujjatlar hamda ichki normativ hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish;

inson omilini qisqartirish va Kombinat faoliyatini (muayyan vazifa va funksiyalarini, shuningdek vakolatlarni) raqamlashtirish, shaffoflikni, hisobdorlikni va ochiqlikni ta'minlash, jamoatchilik hamda OAVlar nazoratini samarali va tizimli ravishda yo'lga qo'yish;

Kombinat ijro apparati (departament, boshqarma, bo'lim, xizmat, sektor, byuro, ofis va boshqalar) hamda tarkibiy bo'linmalar (korxonalar, sex va boshqalar), shuningdek egallab turgan lavozimidan qat'iy nazar barcha mansabdor shaxslar hamda ishchi va xodimlar faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) tartibga solish choralari ko'rish;

Kombinatning barcha bo'g'indagi rahbarlarining, ishchi va xodimlarning jismoniy shaxslar, fuqarolar, shuningdek tadbirkorlik subektlari bilan to'g'ridan-to'g'ri nazoratsiz va norasmiy aloqalarini maksimal darajada cheklash;

rasmiy veb-sayt va boshqa ommaviy axborot vositalarida (shu jumladan, ijtimoiy tarmoqlarda) Kombinat tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari, qurilish va pudrat ishlari, davlat xaridlari, bo'sh ish o'rinlariga nomzodlarni tanlovlarni o'tkazish, xodimlar lavozimlarini o'zgartirish yoxud rotatsiya qilish to'g'risidagi ma'lumotlarni to'liq joylashtirish va tezkor tarqatishni ta'minlash;

Kombinat tomonidan davlat xizmatlarini ko'rsatish jarayonini soddalashtirish, asossiz cheklovlarni, ortiqcha ma'muriy tartib-taomillarni bekor qilish, byurokratik tartibga solish mexanizmlarini yo'q qilish, taqdim etilgan hujjatlar soni va qaror qabul qilish muddatlarini qisqartirish;

Kombinat ijro apparatidagi hamda tarkibiy bo'linmalarning barcha bo'g'indagi rahbarlari tomonidan shaxsiy tashabbus asosida muntazam va tizimli ravishda korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan tushuntirish ishlarini amalga oshirish, OAV hamda ijtimoiy tarmoqlarda doimiy ravishda chiqishlar qilish, aholi va xodimlar bilan profilaktik suhbatlar o'tkazish, fuqaro va tadbirkorlik subektlari vakillarini "ochiq eshiklar" qabul qilish, korrupsiyaga qarshi kurashish uchun maxsus tashkil qilingan ishonch telefonlari va aloqa kanallarini muntazam ravishda targ'ibot va tashviqot qilish;

Boshqaruv a'zolari, tarkibiy bo'linmalarning (korxonalar, sex, departament, boshqarma, bo'lim, xizmat, sektor, ofis, byuro va boshqalar) birinchi rahbarlari o'z bo'ysinuvidagi ishchi xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha ichki hujjatlarga har kuni, o'zaro va to'liq rioya qilishlarini nazorat qilish.



Boshqaruv a'zolari, tarkibiy bo'linmalar (korxonalar, sex, departament, boshqarma, bo'lim, xizmat, sektor, ofis, byuro va boshqalar) rahbarlari, Ishchi guruh hamda Baholash guruhi a'zolari korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo'yicha qonunchilik hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa chora-tadbirlarni ham amalga oshirishi mumkin.

18. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo'yicha mazkur Uslubiyotning 16-bandida belgilangan choralardan kelib chiqib, qoldiq xavf-xatar darajasini baholash ishlari mazkur Uslubiyotning 2-ilovasidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi.

19. Ishchi guruh hamda Baholash guruhi tomonidan mazkur Uslubiyotning 3-ilovasiga muvofiq shaklda Kombinat ijro apparatining korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi loyihasi ishlab chiqiladi.

20. Boshqaruv a'zolari, tarkibiy bo'linmalar (korxonalar, sex, departament, boshqarma, bo'lim, xizmat, sektor, ofis, byuro va boshqalar) tomonidan ushbu Uslubiyotning 3-ilovasiga muvofiq shaklda korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritalar loyihalari va mazkur Uslubiyotning 4-ilovasiga muvofiq shaklda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturlar loyihalari ishlab chiqiladi.

Bunda, mazkur loyihalar hamda barcha tasdiqlovchi hujjatlar Ishchi guruhga hamda uning kotibiyati hisoblangan Komplaens-nazorat xizmatiga umumlashtirish uchun taqdim qilinadi.

21. Baholash guruhi tomonidan Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy bo'linmalar (korxonalar, sex, departament, boshqarma, bo'lim, xizmat, sektor, ofis, byuro va boshqalar) faoliyatidagi barcha (vazifa va funksiyalaridagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash natijalari asosida Kombinatning umumlashtirilgan (jamlangan) korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi ishlab chiqiladi hamda "<https://e-anticor.uz/site/login>" elektron platformasiga har yili 10 yanvargacha qadar kiritiladi.

22. Baholash guruhi tomonidan "<https://e-anticor.uz/site/login>" elektron platformasida joylashtirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi asosida avtomatik ravishda quyidagi hujjatlar shakllantiriladi:

- "Olmaliq KMK" AJning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Dasturi;
- "Olmaliq KMK" AJning korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan Lavozimlar ro'yxati.

## **6-bob. Korrupsiyaga moyil bo'lgan munosabatlar elektron reestrini shakllantirish va yuritish tartibi**

23. Agentlik tomonidan "<https://e-anticor.uz/site/login>" elektron platformasida joylashtirilgan "Olmaliq KMK" AJning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi loyihasi asosida avtomatik ravishda korrupsiyaga moyil bo'lgan munosabatlar elektron reestri shakllantiriladi.

24. Korrupsiyaga moyil bo'lgan munosabatlar elektron reestri loyihasi Agentlik tomonidan jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish uchun o'n besh kundan kam bo'lmagan muddatga "<https://e-anticor.uz/site/login>" veb-saytiga joylashtiriladi.

25. Agentlik jamoatchilik muhokamasi natijalari bo'yicha umumlashtirilgan takliflarni muhokama yakunlangan kundan boshlab o'n kun ichida "<https://e-anticor.uz/site/login>" elektron platformasi orqali "Olmaliq KMK" AJga yuboradi.

26. "Olmaliq KMK" AJning Ishchi guruhi, Agentlik hamda jamoatchilik vakillari tomonidan berilgan takliflar asosida Kombinatning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturi loyihalarini takomillashtiradi.

27. Boshqaruv raisi har yili 20 fevralga qadar Kombinatning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturini "<https://e-anticor.uz/site/login>" elektron platformasi orqali tasdiqlaydi.

### **7-bob. Yakuniy qoidalar**

28. Mazkur Uslubiyot talablarini buzishda aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

“Olmaliq KMK” AJ ijro apparati bo‘linmalari  
(departament, boshqarma, bo‘lim, xizmat, sektor, ofis, byuro va boshqalar)  
hamda tarkibiy tuzilmalarida  
(ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar va sexlar)  
korrupsiyaviy xavf-xatarlarni majburiy tartibda  
aniqlash va baholash” Uslubiyotiga  
**1-ILOVA**

**“Olmaliq KMK” AJ faoliyatining (vazifa va funksiyalarining)  
TAVSIFI**

| <b>T/R</b>   | <b>Funksiya nomlanishi</b> | <b>Funksiya doirasida bajariladigan jarayon</b> | <b>Jarayonlarni amalga oshirish uchun javobgar shaxslar ro‘yxati (ularning to‘liq F.I.SH. hamda lavozimi, tabel raqami, telefon raqami).</b> |
|--|----------------------------|---|--|
|  |                            |   |  |
| <b>1. Davlat tashkilotining nomi</b><br>“Olmaliq KMK” AJ   |                            |   |  |
| <b>1.1. Davlat tashkilotining tarkibiy bo‘linmasi</b><br>Iste‘mol mollari ishlab chiqarish boshqarmasi |                            |   |  |
| <b>1.1.1.</b>  |                            |   |  |
|  |                            |   |  |

“Olmaliq KMK” AJ ijro apparati bo‘linmalari  
 (departament, boshqarma, bo‘lim, xizmat, sektor, ofis, byuro va boshqalar)  
 hamda tarkibiy tuzilmalarida  
 (ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar va sexlar)  
 korrupsiyaviy xavf-xatarlarni majburiy tartibda  
 aniqlash va baholash” Uslubiyotiga  
**2-ILOVA**

**Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasiga baho berish bo‘yicha  
 MEZONLAR**

| <b>Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi</b> | <b>Mezonlar</b>   |
|--|---|
| <b>Yuqori*</b>                           | davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) avtomatlashtirilmagan.   |
|  | davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) tartibga solinmagan.   |
|  | nazoratsiz tartibda ish joyida jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa qilish imkoniyati mavjud.  |
|  | davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiya) doirasida qarorni loyahasini tayyorlashda, ko‘rib chiqishda va qabul qilishda bir shaxs ishtirok etishi.         |
|  | davlat tashkilotining faoliyatini (vazifa va funksiyani) bajarishda korrupsiyaviy xatti-harakat sodir etilgan (jinoyat sodir etilganligi sud tomonidan tasdiqlangan). |
| <b>O‘rta*</b>                            | davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) qisman avtomatlashtirilgan.  |
|  | davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) qisman tartibga solingan.  |

|               |   |
|---------------|---|
| <b>O‘rta*</b> | nazorat tartibida ish joyida jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa qilish imkoniyati mavjud.  |
|               | davlat tashkilotining faoliyatini (vazifa va funksiyani) doirasida qarorni loyahasini tayyorlashda, ko‘rib chiqishda va qabul qilishda ikkita shaxs ishtirok etishi.                                    |
|               | davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) bajarishda korrupsiyaviy xatti-harakat sodir etilganligi to‘g‘risidagi ma’lumot mavjud (jinoyat sodir etilganligi sud tomonidan tasdiqlanmagan). |
| <b>Past**</b> | davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) to‘liq avtomatlashtirilgan.  |
|               | davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) to‘liq tartibga solingan.  |
|               | jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa qilish imkoniyati mavjud emas.  |
|               | davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) doirasida qarorni loyahasini tayyorlashda, ko‘rib chiqishda va qabul qilishda uch va undan ortiq shaxs ishtirok etishi.                          |
|               | korrupsiyaviy xatti-harakat va korrupsiyaviy xatti-harakat sodir etilganligi to‘g‘risidagi ma’lumot mavjud emas.  |

\*Ishchi guruh tomonidan davlat tashkilotining faoliyatida (vazifa va funksiyasida) aniqlangan xavf-xatarning yuqori yoki o‘rta darajada deb baholash Boshqaruv raisi bilan kelishgan holda amalga oshiriladi.

\*\* “Olmaliq KMK” AJning faoliyatida (vazifa va funksiyasida) aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholashda, agarda past darajadagi mezonlarning biri mavjud bo‘lsa, o‘sha korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi past darajada deb baholanadi.

“Olmaliq KMK” AJ ijro apparati bo‘linmalari  
 (departament, boshqarma, bo‘lim, xizmat, sektor, ofis, byuro va boshqalar)  
 hamda tarkibiy tuzilmalarida  
 (ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar va sexlar)  
 korrupsiyaviy xavf-xatarlarni majburiy tartibda  
 aniqlash va baholash” Uslubiyotiga  
**3-ILOVA**

**\_\_\_\_\_ ni faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarning  
 XARITASI**

| T/R       | Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning tavsifi     | Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning darajasi (past, o‘rta, yuqori) | Funksiyalarni (jarayonlarni) amalga oshirishga mas’ul bo‘lgan lavozim | Funksiyalarni (jarayonlarni) tartibga soluvchi mexanizm | Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari | Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi (past, o‘rta, yuqori) | Mas’ul ijrochilar |
|-----------|---|--|---|---|--|--|-------------------|
|           | <b>1. Tarkibiy bo‘linmaning nomi*</b>       |  |   |   |  |  |                   |
| <b>1.</b> | <b>1. Davlat tashkiloti funksiyasi nomi</b> |  |   |   |  |  |                   |
|           | <b>1. Funksiyaga oid munosabat nomi</b>     |  |   |   |  |  |                   |
|           | <b>1. Jarayon nomi</b>                      |  |   |   |  |  |                   |
|           |   |  |   |   |  |  |                   |
|           | <b>2. Jarayon nomi</b>                      |  |   |   |  |  |                   |
|           |   |  |   |   |  |  |                   |
|           | <b>2. Tarkibiy bo‘linmaning nomi*</b>       |  |   |   |  |  |                   |
| <b>2.</b> | <b>1. Davlat tashkiloti funksiyasi nomi</b> |  |   |   |  |  |                   |
|           | <b>1. Funksiyaga oid munosabat nomi</b>     |  |   |   |  |  |                   |
|           |   |  |   |   |  |  |                   |
|           | <b>1. Jarayon nomi</b>                      |  |   |   |  |  |                   |
|           |   |  |   |   |  |  |                   |
|           | <b>2. Jarayon nomi</b>                      |  |   |   |  |  |                   |

